



Demografik holat


(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni. Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga **3225,8** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 12,7 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni **1388,6** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 43,0 %), qishloq aholisi soni 1837,1 ming kishini (57,0 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2019 yil yanvar-mart

- Aholi soni **12,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **16,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- **2,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.

Qashqadaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-mart oylarida)



Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2018-2019 yillar 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)


	2018 yil	2019 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Qashqadaryo viloyati	3159,1	3225,8	102,1
Qarshi sh.	268,0	272,1	101,5
Shahrisabz sh.	134,9	137,6	102,0
tumanlar:			
G'uzor	196,3	200,0	101,9
Dehqonobod	141,3	144,4	102,2
Qamashi	260,4	266,0	102,2
Qarshi	237,6	242,7	102,2
Koson	273,6	279,4	102,1
Kitob	255,0	260,0	102,0
Mirishkor	115,0	117,3	102,0
Muborak	83,4	85,2	102,2
Nishon	145,8	149,3	102,4
Kasbi	188,7	192,5	102,0
Chiroqchi	391,3	401,7	102,7
Shahrisabz	215,3	218,7	101,6
Yakkabog`	253,2	258,9	102,3

*) dastlabki ma'lumot


Viloyat tumanlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Chiroqchi tumanida 401,7 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 12,5 % ni) va Koson tumanida 279,4 ming kishini (8,7 %), Qarshi shahrida 272,1 ming kishini (8,4 %), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida 85,2 ming kishi (2,6 %) va Mirishkor tumanida 117,3 ming kishini (3,6 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Nishon tumanida 2,4 %ni, Chiroqchi tumanida 2,7 %ni, Dehqonobod 2,2%ni, Koson tumanlarida 2,1%ni, Qarshi tumanida 2,0%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qarshi shahrida 1,5 % ni va Shahrisabz tumanida 1,6 tashkil etdi.

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Doimiy aholi sonining tumanlar kesimida jinslar bo'yicha taqsimlanishi
(2019 yillar 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	Erkaklar	Ayollar
Qashqadaryo viloyati	1630,5	1595,2
Qarshi sh.	135,8	136,3
Shahrisabz sh.	69,7	67,9
tumanlar:		
G`uzor	101,5	98,5
Dehqonobod	72,7	71,6
Qamashi	134,4	131,5
Qarshi	120,6	122,1
Koson	141,5	137,9
Kitob	132,1	127,9
Mirishkor	59,9	57,4
Muborak	43,0	42,2
Nishon	74,8	74,5
Kasbi	98,2	94,3
Chiroqchi	204,0	197,8
Shahrisabz	111,4	107,3
Yakkabog`	131,1	127,9



Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 16,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,3 promilleni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 1,0 promillega ko'paygan (2018 yilning yanvar-mart oylarida 20,3 promille bo'lgan).



Qiz bolalar:
8,1
ming nafar


O'g'il bolalar:
8,9
ming nafar

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari Yakkabog' tumanida (20,5 promilledan 22,5 promillega) va Qarshi shahrida (15,8 promilledan 23,5 promillega) Qamashi (21,2 promilledan 23,8 promillega) va Shahrisabz shahri (17,4 promilledan 21,1 promillega) tumanlarida va eng yuqori kamayish sur'atlari Kasbi (19,5 promilledan 18,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskularning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti



Qashqadaryo viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi (yanvar-mart)

	2018 y.	2019 y.	O`sinh sur`ati % da
Qashqadaryo viloyati	15822	16897	106,8
Qarshi sh.	1041	1575	151,3
Shahrisabz sh.	578	716	123,9
tumanlar:			
G`uzor	1040	1017	97,8
Dehqonobod	816	900	110,3
Qamashi	1361	1556	114,3
Qarshi	1064	1066	100,2
Koson	1459	1488	102,0
Kitob	1220	1227	100,6
Mirishkor	544	541	99,4
Muborak	434	448	103,2
Nishon	787	824	104,7
Kasbi	904	879	97,2
Chiroqchi	2355	2467	104,8
Shahrisabz	942	760	80,7
Yakkabog`	1277	1433	112,2



Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 2,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 3,7 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega ko'paydi (2018 yilning yanvar-mart oylarida 3,7 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2019 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada o'sish sur'atlari Qarshi shaxrida (4,1 promilledan 5,0 promillega), aksincha sezilarli darajada kamayishi sur'atlari Kasbi (4,3 promilledan 3,6 promillega), Chiroqchi (3,3 promilledan 3,0 promillega) Koson (4,0 promilledan 3,6 promillega), Mirishkor (4,4 promilledan 3,3 promillega), Dehqonobod (3,8 promilledan 3,3 promillega) va Shaxrisabz (4,4 promilledan 3,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.


Vafot etganlar



Erkaklar:
1,6
ming
kishi

Ayollar:
1,3
ming
kishi

Tumanlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)




**Qashqadaryo viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi
(yanvar-mart)**

	2018 y.	2019 y.	O`shish sur`ati %da
Qashqadaryo viloyati	3207	2914	90,9
Qarshi sh.	268	337	125,7
Shahrisabz sh.	141	129	91,5
tumanlar:			
G`uzor	239	198	82,8
Dehqonobod	131	117	89,3
Qamashi	257	227	88,3
Qarshi	266	233	87,6
Koson	265	231	87,2
Kitob	249	245	98,4
Mirishkor	125	95	76,0
Muborak	67	66	98,5
Nishon	128	129	100,8
Kasbi	199	169	84,9
Chiroqchi	322	295	91,6
Shahrisabz	234	204	87,2
Yakkabog`	316	239	75,6

2019 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,3 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,1 %i o'simtalardan, 4,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,8 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,6 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,0 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 15,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 158 nafarni tashkil etib, ularning 52,5 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 30,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 7,0 %i tug'ma anomaliyalardan, 0 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 0,6 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 8,9 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2019 yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 14,0 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 1,4 ming kishiga (2018 yilning yanvar-mart oylarida 12,6 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish: 14,0 ming kishi


Nikoh. 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,5 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,7 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (105,6 %), G'uzor (119,7 %), Koson (116,5 %), Yakkabog' (112,6 %), Qarshi (105,7 %) va eng yuqori kamayish sur'atlari Dehqonobod (89,5 %), Nishon va Kasbi (91,9%), Chiroqchi (91,7 %), Muborak (93,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,5 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nishon (104,8 %), Yakkabog' (102,4 %) va eng yuqori kamayish sur'atlari Kitob (40,5 %), Kasbi (44,4%), Chiroqchi (47,3 %), Shahrisabz (48,9 %) Chiroqchi (47,3 %) Mirishkor (59,0%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti



Tumanlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)



Qashqadaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-mart)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati % da	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	4527	4531	100,1	589	389	66,0
Qarshi sh.	355	375	105,6	95	58	61,0
Shahrisabz sh. tumanlar:	170	175	102,9	44	32	72,7
G`uzor	198	237	119,7	27	22	81,5
Dehqonobod	219	196	89,5	17	15	88,2
Qamashi	380	364	95,8	38	27	71,0
Qarshi	279	295	105,7	39	29	74,3
Koson	345	402	116,5	40	32	80,0
Kitob	383	348	90,9	74	30	40,5
Mirishkor	167	172	103,0	22	13	59,0
Muborak	100	93	93,0	13	11	84,6
Nishon	236	217	91,9	21	22	104,8
Kasbi	248	228	91,9	18	8	44,4
Chiroqchi	664	609	91,7	55	26	47,3
Shahrisabz	395	383	97,0	45	22	48,9
Yakkabog`	388	437	112,6	41	42	102,4




Migratsiya. 2019 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,3 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 1,1 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	3,1	2,7
Ko'chib ketganlar	4,2	4,0
Migratsiya saldosi	-1,1	-1,3


Migratsiya saldosi-
ingyuqori darajasi Shahr-
abz va Koson tumanida
(minus 0,2 ming kishi),
Yakkabog' va Kitob tu-
manlarida (minus 0,1 ming
kishi) qayd etildi.

Aholi migratsiyasi ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar (2019 yil yanvar-mart)



Tumanlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni va migratsiya saldosi (2019 yil yanvar-mart)

	Ko'chib kelganlar		Ko'chib ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Qashqadaryo viloyati	3110	2651	4173	3968	-1063	-1317
Qarshi sh.	514	680	712	521	-198	159
Shahrisabz sh.	55	108	124	171	-69	-63
tumanlar:						
G`uzor	26	125	200	157	-174	-32
Dehqonobod	139	69	224	240	-85	-171
Qamashi	148	21	293	259	-145	-238
Qarshi	604	311	421	282	183	29
Koson	172	110	275	264	-103	-154
Kitob	197	145	294	327	-97	-182
Mirishkor	49	127	107	109	-58	18
Muborak	146	111	179	134	-33	-23
Nishon	507	230	342	254	165	-24
Kasbi	140	172	194	171	-54	1
Chiroqchi	50	83	276	346	-226	-263
Shahrisabz	151	186	219	432	-68	-246
Yakkabog`	212	173	313	301	-101	-128



Viloyat statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat
statistikasi bo`limi

Nashr uchun mas'ul: **D. Berdieva**
(71) 230-84-05
(75) 221-15-84